

EVFEMIZMLARNING LISONIY-MADANIY ASPEKTLARI XUSUSIDA

Amriddin Shoimov

SamDCHTI, assistent o'qituvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10996679>

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslikda tillarning turli aspektlari lisoniy-madaniy jihatdan tadqiq etilishi olimlar tomonidan eng ko'p e'tibor birilayotgan sohalardan hisoblanadi. Quyidagi maqolada biz evfemizmlarning lisoniy-madaniy xususiyatlarning ifodalanish xususiyatlarini nemis va o'zbek tillari qiyosida ko'rsatib o'tishga harakat qilganmiz.

Kalit so'zlar: xalqlar madaniyati, evfemizmlar, lisoniy-madaniy talqin, madaniy o'xshashlik va farqlar, evfemizmning madaniy aspektlari.

ON LINGUISTIC AND CULTURAL ASPECTS OF EUPHEMISMS

Abstract. In modern linguistics, the study of linguistic and cultural aspects of languages is one of the areas that scientists pay the most attention to. In the following article, we have tried to show the characteristics of the expression of linguistic and cultural features of euphemisms in comparison with the German and Uzbek languages.

Key words: people's culture, euphemisms, linguistic-cultural interpretation, cultural similarities and differences, cultural aspects of euphemism.

О ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ АСПЕКТАХ ЭВФЕМИЗМОВ

Аннотация. В современном языкознании изучение лингвокультурологических аспектов языков является одним из направлений, которому ученые уделяют наибольшее внимание. В следующей статье мы постарались показать особенности выражения лингвокультурных особенностей эвфемизмов в сравнении с немецким и узбекским языками.

Ключевые слова: культура народа, эвфемизмы, лингвокультурологическая интерпретация, культурные сходства и различия, культурные аспекты эвфемизмов.

Evfemizmlarning lisoniy-madaniy ahamiyati haqida gapirar ekanmiz, avvalo evfemizmlarni faqat bir jamiyat, davlat yoki millatga tegishli so'z yoki hodisa emasligini, balki ularni turli jarayonlar, jamiyatlardagi holat va madaniylik belgisi sifatida o'rganish kerakligini ta'kidlash lozim [Reinfellner, 1971: 10]. Ushbu til unsuri o'zida madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, diniy-dunyoviy turmush tarzini aks ettiruvchi hodisa [Rustamova, 2018: 14] ekanligini ta'kidlab o'tish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada aynan shu masala tadqiqi haqida gap boradi, hamda hozirgi kunda shu jihatga e'tibor qaratilgan ayrim tadqiqot ishlari bilan tanishtiriladi.

Etnomadaniyatlar hozirgi global dunyoda bir – birlariga izchil ravishda to'qnash kelmoqda.

Shunday ekan siyosatchilar va tilshunoslar ham ushbu masalaning tadqiq etilishiga e'tibor qaratmoqdalar. Evfemizmlar ham madaniyatlararo muloqotda o'ziga xos rol o'ynashini inkor qilib bo'lmaydi.

Bir xalqning paydo bo'lishi, yuksalishi, davrlar osha turli urf – odatlarning paydo bo'lishi uning madaniy hayotini tashkil etadi. Bundan tashqari bir xalq madaniyati uning erkinligi, muhim voqea hodisalar, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning boshdan kechirilishi kabi unsurlardan iborat [Rustamova, 2018: 9].

Nemis va o'zbek tillarining qiyoslab o'rganilishidan tashqari, ikkala tilning lingvamadaniy xususiyatlarini qiyoslab, tadqiq etish borasiga ham murojaat qilingan bo'lib, unda nemis va o'zbek

tillaridagi harbiy frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlar chog‘ishtirilgan [Maripova, 2023]. Zamonaviy tilshunoslikda evfemizmlarning ham madaniyatlararo kasb etuvchi xususiyatlarini ochib berishga urinishlar ko‘payib bormoqda [Romanov, 2021]. Evfemizmlarni bunday xususiyatlari ekstralingvistika sathida o‘rganilishi ayni muddao bo‘lib [Glios: 2007], har bir so‘zning eng avvalo lug‘aviy, keyinchalik siyosat, madaniyat, iqtisod va boshqa sohalardagi ikkilamchi anglatadigan ma‘nolarini to‘g‘ri anglash muhim masaladir [Bolen, 1994: 25]. Shunday ekan nemis va o‘zbek tilida mavjud evfemizmlarning lisoniy-madaniy xususiyatlarini qiyoslash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Evfemizm hodisasi nafaqat lingvistik yoki ijtimoiy, balki ruhiy-madaniy hamda etnomadaniy jamiyatlarning o‘ziga xos til hodisasi hisoblanadi [Muxamedyanova, 2005: 3].

Territorial bir – biridan uzoq masofada bo‘lgan nemis va o‘zbek xalqlari madaniyati nafaqat diniy-axloqiy tomonlama, balki kundalik hayotda va urf – odatlarida ham anchagina tafovudlarga ega. Ikkala xalqda ham qilish mumkin bo‘lmagan ish – harakat, aytish mumkin bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalari mavjud bo‘lib, ularning o‘rnida evfemizmlarni qo‘llash vaziyati esa bir xil, ya‘ni evfemizmlar ikkala xalq nutqida ham o‘xshash maqsadlarda qo‘llanadi.

Gap urf – odatlar haqida borganda, o‘zbek xalqining qiblaga oyoq uzatib o‘irmasligi yoki yotmasligi, supurgini tikka qo‘ymasligi kabi tabu harakatlarini kuzatamiz [Usmonova, 2015: 124].

Bunday taqiqlanadigan hodisalar nemis xalqida ham talaygina kuzatish mumkin.

Madaniyatlararo munosabatlarda ham evfemizmni qo‘llashning asosiy vazifasi salbiy bahoga ega bo‘lgan so‘zni almashtirishdir. Baholash asosida madaniy me‘yorlarni qayta konstruksiyalash mumkin. Evfemizmlar ko‘p hollarda salbiy mazmun kasb etgan nomaqbul nomni zararsizlantiradi [Romanov, 2021: 6].

Bir so‘z bilan aytganda evfemizmni turli jihatlarida ko‘rib chiqish ushbu semantik va pragmatik hodisaning murakkab ta‘rifini shakllantirishga imkon beradi: evfemizm nutqni kodlashtirish, denotativ tarkibni madaniyat meyorlariga muvofiq talqin qilish maqsadlariga xizmat qiladigan ikkinchi darajali nominativ birlikdir. Bunday so‘zlar odob normalari sharoitida yuzaga keladigan elementlar hisoblanadi va bir fikrni lingvomadaniy aks ettirish natijasidir [Romanov, 2021: 8].

Paraevphemizm vositalariga murojaat qilish boshqa lingvomadaniy jamoalar vakillari tomonidan paraevfemik hodisalarni noto‘g‘ri talqin qilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun milliy madaniy xususiyatlar haqida ma‘lum bilimlarni talab qiladi [Muxamedyanova, 2005: 12]. Hissiy komponent hissiyotlarning og‘zaki shaklini aks ettiradi, ularning semema tarkibidagi xilma-xilligi “ma‘qullayman” yoki “rad etaman” semalari bilan ifodalanadi. Qoida tariqasida, bu semalar tasvirni madaniy me‘yorlar bilan talqin qilish natijasidir [Romanov, 2021: 7].

Ekstralingvistika nuqtai nazardan evfemizmlarni quyidagi bir – biriga bog‘liq bo‘lgan uchta psixologik, sotsial va lingvistik aspektlarga bo‘lib o‘rganish mumkin [Glios, 2007: 7].

Evfemizmning psixologik jihatining asosini ong masalasi yordamida kelib chiqqan motivlar tashkil etadi hamda dunyo xalqlari madaniyatlarda tabularning tematik o‘zaro bog‘liqligi, qo‘rquv va uyat tuyg‘ulari dastlab yetakchi bo‘lgan taqiqning hissiy asoslari bilan bog‘liq.

Evfemizatsiya jarayonining ijtimoiy tomoni axloqiy me‘yorlarning harakatini o‘z ichiga oladi. Evfemizatsiya uchun mavjud shartlar orasida jamiyatda qabul qilingan me‘yorlar va qadriyatlar tomonidan ta‘kidlangan motivlar yetakchi o‘rinni egallaydi.

Til ifodasining tanlanganlik darajasi jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi (muloqot ishtirokchilarining maqomi, jinsi, yoshi, millati) va nutq sharoitlari (nutq aloqasining madaniy va lingvistik asoslari, soʻzlovchining niyatlari va boshqalar) bilan belgilanadi. Madaniyatlararo muloqotda fikrni korrektiligiga eʼtibor berish nutqda verbal agressiyani minimallashtira oladi.

Bunda evfemizmlar faol ishtirok etib, muayyan bir madaniyat va madaniy urf-odatlarini taʼqirlamaslik, siyosiy-iqtisodiy hamda madaniy aloqalarda manipulatsiyada yumshoqlikni ifodalash maqsadida ishlatiladi [Glios, 2007: 12].

Axloqiy va estetik baholar evfemizmlarning aksiologik jihatining asosini tashkil qiladi.

Evfemizmlarning pragmatik mohiyati, bizningcha, oʻzaro toʻldiruvchi harakatdagi hamkorlik [Gries 1985], xushmuomalalik [Brown & Levinson 1987] va teng xavfsizlik [Pavlova 1988]] tamoyillarida oʻz ifodasini topgan [Muxamedyanova, 2005: 14].

Milliy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda evfemizatsiya mexanizmini har tomonlama tavsiflash va tushuntirish shaxslararo va xalqaro munosabatlarda tushunmovchilik va nizolarning oldini olishga yordam beradi, turli madaniyatlar vakillari bilan samarali muloqotga erishish yoʻllarini aniqlash va rivojlantirishga imkon beradi. Bu holat ayniqsa koʻp millatli davlatlar miqyosida, yoki turli millatlarning bir – birlari bilan turli masalalarda muloqot qilishlarida katta ahamiyat kasb etadi [Muxamedyanova, 2005: 26].

Haqiqatdan ham evfemizmlar yordamida madaniyat meʼyorlari va munosabatlariga rioya qilish orqali adresatga hurmatni ifodalash mumkin. Evfemizmlardan foydalanish muloqotda yon berishga harakat qilish, qulay kommunikativ masofani saqlash, qabul qiluvchining ijtimoiy mavqeini, uning manfaatlarini hurmat qilish kabi xushmuomalalik niyatini amalga oshirishga imkon beradi [Romanov, 2021: 14].

Globallashib borayotgan dunyoda muloqot izchilligi oshib borar ekan, siyosiy evfemizmlar yanada koʻpayishi hamda ularning madaniyatlarga mos tarzda tanlab, qoʻllanilishi davr talabi boʻlib qolmoqda. Madaniy, xulq-atvor va lingvistik hodisa sifatida siyosiy korrektilikning toʻrtta tamoyilini taʼkidlab oʻtish lozim [Glios, 2007: 13]. “Irgʻilararo va etnik millatlararo bagʻrikenglik tamoyili” irqiy yoki etnik kelib chiqishiga qarab kamsitish yuzaga kelmasligi uchun qoʻllanadigan evfemizmlar qoʻllanilishini taqozo etadi. Siyosiy korrektilikning ikkinchi tamoyili - bu kasb nomining jinsga aloqador emasligi, jinsga qarab kamsitishning oldini olish uchun jinsi koʻrsatilmagan kasblar nomlari uchun lingvistik iboralardan foydalanish, yaʼni, jinsga qarab belgilanmagan lugʻatning yangi qatlami jarayonida evfemizmlarning yuzaga kelishidan iboratdir.

Nemis va oʻzbek tillaridagi *der Lehrer-muallim, die Lehrerin-muallima* kabi kasbni anglatuvchi otlarda mavjud boʻlgan jinsiy farqlash mavjudligi maʼlum. Ammo XXI asrda ushbu xalqlar nutqida mavjud ayrim kasb nomlarida evfemizmlar xususiyatlar mavjud. Ammo *Zimmerpflege-xina xizmati* evfemizmlari oʻz ichiga olgan jinsiy tenglik ikki xalq madaniyatida ham ijobiylikni koʻrsata olmoqda.

Xulos sifatida muxtasar qilish mumkinki, nemis va oʻzbek tillaridagi evfemizmlar oʻrganilishi va ayniqsa lisoniy-madaniy jihatdan tadqiq etilishiga qoʻl urgilgan. Evfemizmlarning madaniy vaziyatlarda yuzaga kelishi va ifodalanishi ham ikki xalq nutqida uchrab turadi.

REFERENCES

1. Bohlen A. Die sanfte Offensive: Untersuchungen zur Verwendung politischer Euphemismen in britischen und amerikanischen Printmedien bei der Berichterstattung über den Golfkrieg im Spannungsfeld zwischen Verwendung und Missbrauch der Sprache. Univ., Diss., Frankfurt am Main. Lang, 1994.
2. Глиос Е.С. Лингвокультурная специфика формирования и функционирования эвфемизмов в современном английском языке (на материале англоязычных Интернет-сайтов). Автореферат. – Белгород, 2007, 23 б.
3. Maripova X.M. Harbiy frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari (Nemis va o'zbek tillari misolida). Avtoreferat. Farg'ona - 2023
4. Мухамедьянова Г.Н. Эвфемия в общественно-политической лексике (на материале современного немецкого, русского и башкирского языков). Автореферат. – Уфа, 2005, 17 б.
5. Leinfellner E. Der Euphemismus in der politischen Sprache. Berlin: Duncker & Humblot. – 1971, 177 Seiten.
6. Романов С.И. Лингвокультурогический аспект эвфемизмов. Автореферат. – Тула, 2021, 18 б.
7. Rustamova D. A. Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspektlari. filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Farg'ona: 2018, 50 b.
8. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. –Toshkent: TDSHI, 2017. – 256 b.